

NAVOIY QITA'LARIDA HIRS-U HAVO TALQINI

Sayfiddin Rafiddinov,

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo'lim mudiri,
filologiya fanlari nomzodi*DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925345>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy qit'alarida hirs-u havas tushunchasining badiiy va axloqiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning "Mahbub ul-qulub", "Navodir ush-shabob", "Nasoyim ul-muhabbat", "Siroj ul-muslimin" va "Vaqfiya" kabi asarlaridagi qarashlari asosida hirsning inson ruhiyati va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijasida Navoiy talqinida hirs insonni ma'naviy qashshoqlikka yetaklovchi illat ekani, uning davosi esa qanoat, sabr va shukr kabi fazilatlarda namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Shuningdek, ayrim oshiqona g'azallarda hirs tushunchasining ijobiy – ilohiy ishq yo'lidagi ishtiyoq ma'nosida qo'llanishi ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: hirs, havas, qanoat, nafs, axloqiy komillik, tasavvufiy talqin.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная и нравственная интерпретация понятия страсти и желания в китъа Алишера Навои. На основе взглядов поэта в таких произведениях, как "Махбуб ул-кулуб", "Наводир уш-шабоб", "Насойим ул-мухаббат", "Сирож ул-муслимин" и "Вакфия", освещается негативное влияние похоти на психику человека и жизнь общества. В результате исследования обосновано, что в интерпретации Навои жадность является пороком, ведущим человека к духовной нищете, а ее лекарство проявляется в таких качествах, как довольство, терпение и благодарность. Также показано, что в некоторых любовных газелях понятие страсти используется в значении положительной – страсти на пути божественной любви.

Ключевые слова: страсть, желание, довольство, желание, нравственное совершенство, суфийская интерпретация.

Abstract. This article analyzes the artistic and moral interpretation of the concept of greed in Alisher Navoi's qit'as. Based on the views of the poet in such works as "Mahbub ul-qulub", "Navodir ush-shabob", "Nasoyim ul-muhabbat", "Siroj ul-muslimin" and "Vaqfiya" the negative impact of greed on the human psyche and the life of society is highlighted. As a result of the research, it is substantiated that in Navoi's interpretation, greed is a vice that leads a person to spiritual poverty, and its cure is manifested in such virtues as contentment, patience, and gratitude. It is also shown that in some romantic ghazals the concept of hirs is used in the sense of positive – passion on the path of divine love.

Keywords: greed, desire, contentment, desire, moral perfection, mystical interpretation.

Kirish. Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarida o'dob-axloqning, pand-u nasihatlarining turli ko'rinishlari ko'zga tashlanadi. Insonning ruhiy va axloqiy komolotiga oid har qanday ko'rsatma va ugitlar borki, Navoiy asarlaridan topish mumkin. Bu borada ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asari shubhasiz shoh asarlardan biridir.

Navoiyning qit'alari ham o'zining shakli, uslubi va mazmun mundariyasi bilan ulug' shoirning falsafiy, axloqiy, badiiy va irfoniy qarashlarini ma'lum ma'noda to'ldirib turadi. Biz ushbu maqolamizda ulug' mutafakkir qit'alaridagi hirs va harislik, hoyu havaslarga berilish tushunchalariga biroz izoh berib o'tamiz.

Ma'lumki, Navoiy asarlarida harislik va hirs kabi so'zlarga tez-tez duch kelamiz. Lug'atlarda bir-biriga ma'nodosh bo'lgan bu so'zlar: "Biror narsaga qattiq berilish; tama', ochko'zlik" kabi ma'nolarni bildiradi. Ulug' shoir asarlarida qanoatli kishi faqir bo'lsa

ham shohdir, haris odam podshoh bo'lsa ham gadodir, degan xulosani ilgari suradi. Navoiyning "Hirs bir o'tdurkim, qancha yoqsang, yana alangalanur", degan fikri, hirsning aql va ruhning qashshoqlashishiga sabab bo'ladigan illat ekani anglashiladi. Odatda hirsga berilgan odamda qanoat bo'lmaydi, halol va haromni farqiga bormay ko'zi xiralashib, haqiqatni ko'rmay qoladi. Hirs va hoyu havaslarga berilish insonni oqibat xor, uni xalq nazdida qadsiz qilib qo'yadi. Navoiy hirsning davosi sifatida qanoat, sabr, taqdirga rozi bo'lish va shukr kabi tuyg'ularni misol qilib keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. Navoiyshunoslikda Alisher Navoiy merosining axloqiy-falsafiy jihatlarini keng o'rganilgan bo'lsa-da, qit'alarda hirs-u havas masalasining alohida tadqiqi kam uchraydi. Ilmiy manbalarda, xususan, shoirning "Mahbub ul-qulub" hamda "Navodir ush-shabob" asarlari doirasida axloqiy pand-nasihatlarni umumiy tarzda tahlil qilingan. Shuningdek, tasavvufiy qarashlari "Nasoyim ul-muhabbat" asosida yoritilgan tadqiqotlarda nafs va qanoat masalalariga e'tibor qaratilgan. Biroq qit'alar kesimida hirs tushunchasining ijtimoiy va irfoniy mazmunini kompleks tahlil qilish ushbu maqolaning o'ziga xos jihatini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Navoiy qit'alari matni lingvopoetik hamda ma'no qatlamlari asosida tahlil qilinib, hirs tushunchasining lug'aviy, axloqiy va tasavvufiy talqinlari o'zaro qiyoslandi. Shuningdek, tarixiy-adabiy yondashuv asosida shoirning g'oyalari islomiy manbalar va tasavvufiy qarashlar kontekstida o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Navoiy inson haqida gapirganda uning yaxshi fazilatlarini maqtab, yomon xulqlarini ayovsiz fosh qiladi. Shu jumladan qit'alarida nafsning hoyu havaslari bilan bog'liq bo'lgan harislik, ochko'zlikka alohida tuxtaladi. Ayni paytda hirs va ochko'zlikni, dunyoga berilishni, g'aflatda qolishdan bizni ogoh etadi. Jumladan, "Navodir ush-shabob" devonidagi "Hukamo qavlining tarjimai" nomli qit'asida shunday deydi:

Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:

Shohdin tundlug', g'anidin buxl,
Molg'a maylu hirs donodin.

Odatda inson tabiatida yaxshilik va yomonlik yashaydi. Aynan odamning yomon illatlari yuzaga chiqsa, tanqid qilinadi. Navoiy ham uqtiradiki, "Senga ahli dunyodagi kishilardan gapiradigan bo'lsam, uch toif kishidan, uch ish yomon ko'rinadi. Shoh fe'lining tund (g'azabli, qo'pol-qo'rs) bo'lishi, boy kishining baxil bo'lishi va dono kishining mol-dunyoga hirs qo'yishi. Diqqat qilinsa, uch toifa odamning bunday fe'li o'zi uchun ham jamiyat uchun zarar keltiruvchi salbiy illatlardan hisoblanadi.

Navoiy "Javohirsevar salotin inkoridavu aning toshqa mushobahati izhorida" qit'asida esa o'z davridagi "javohir sevar"shohlarni tanqid qiladi. Uning ta'kidlashicha, shohlarning bu qimmatbaho toshga munosabati salbiy oqibatlarga olib keladi.

“Javohirsevarlik” misolida biz boylikka intilishni, mol-dunyoga bo‘lgan harislikni tushunamiz. Afsuski, bu harislik na o‘ziga na ommaga foyda keltiradi. Qit’ani o‘qiymiz:

Shaho, el javhari jonin chiqarding,
Javohir hirsidin bedod etib fosh.

Chu o‘lgungdur ne osig‘ to‘kmak oni
Mazoring uzra andoqkim, ushoq tosh.

Ya’ni mutafakkir shoir bu o‘rinda ham oltin-kumushga haris bo‘lgan va bu fe’li bilan xalqqa zulm qilgan shohni mazammat qiladi. Bunday shohning boylik deb xalqqa azob bergani qoladi. Chunki, inson o‘lishi bilan mol-dunyosini tark etadi, boyligi unga vafo qilmaydi. Elning “javhari jon”idan judo qilgan boyliklarning esa shoh vafotidan keyin qabri ustiga mayda toshchalar kabi sochganning aslo foydasi bo‘lmaydi. Bu o‘rinda mol-dunyoni tiriklikda va kerakli o‘rinda sarf qilmoq kerak degan ma’no chiqadi. Zotan mol-dunyoni yig‘ib, uni yaxshi yo‘llarga sarflamagan kishilar Qur’oni karimda ham qattiq ogohlantirilgan. “Tavba” surasi, 34-oyatda aytiladi: “Ey habibim, oltin va kumushlarni yig‘ib, uni Alloh yo‘lida infoq-ehson qilmaganlarga alamli azobdan xabar ber”.

Darhaqiqat, Navoiy hazratlarining o‘zi ham topganini ezguli, xayrli yo‘llarga, shoh va shoir Bobur ta’biri bilan aytganda “binoyi xayr” larga sarf etganidan xabarimiz bor. Ulug‘ shoir aynan shu xislatlari bilan ham bizlarga ibrat namunasini ko‘rsatib ketganlar.

Navoiy “Oltun, kumushga hirs man’ikim tutmog‘i ilikni qora qilur va muhabbati ko‘ngulni” sarlavhali qit’asida oldingi satrlarda aytilgan fikrlarga hamohang tarzda insonni hushyorlikka, qanoatga, boylikka ruju’ qo‘ymaslikka chaqiradi.

Ko‘p oltun, kumush sari qo‘l so‘nmog‘il
Ki, tutsang kafingni qora zang etar,

Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama
Ki, ko‘nglungni dog‘i hamul rang etar.

Oltin-kumush, umuman boylik inson ehtiyoji, yashashi uchun kerak narsa. Lekin har bir narsaning chegarasi bo‘lganidek oltin, kumushga bo‘lgan harakatning ham me’yori bor. Shuning uchun ham Navoiy “ko‘p” so‘zini qo‘llab, haddan ortiq boylikka qo‘lingni cho‘zsang kaftingni “qora zang” qilib qo‘yadi. Kaftdagi qoralik istiora sifatida harislikning belgisini bildiradi... Endi agar ko‘ngulda boylikning “dog‘”ini asrasang, bu “dog‘” qalbga ta’sir qilib, o‘z rangiga aylantirib qo‘yadi. Dog‘ning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor bersak, “kuyuk, kuygan joy, byelgi, qoralik; iz, asar, qayg‘u, alam, kulfat” kabi ma’nolarda keladi. Demak, qalbida oltin-kumush dog‘ini asragan kishining ko‘nglida dog‘, qoralik, kuyuklik asari bo‘ladi...

Inson fitrati qiziq. U har qancha boyisa, yana boyigisi kelaverar ekan. Bejizga otobobolarimizdan “insonni o‘zi to‘ysa ham ko‘zi to‘ymaydi”, degan naql qolgan emas.

Ibni Abbos va Anas bin Molikdan rivoyat bo‘lgan bir hadisi sharifda shunday deyiladi: “Odam bolasining bir vodiy tillasi bo‘lsa, ikkinchi bir vodiy tillasini ham o‘ziniki

bo‘lishini xohlaydi. Uning qornini faqat tuproq to‘ldiradi. Va Alloh tavba qilganlarning tavbasini qabul qiladi”.

Navoiy “Dyevoni Foniyy”dagi bir qit‘asida ham hirsdan, xususan avom kishilarnig ochko‘zligidan yiroq yurishni targ‘ib qilib, pashshaning kishining g‘ashiga tegadigan nojo‘ya harakatlarini misol qilib keltiradi:

Az avomi tirai purhirs dunyo dur bosh!

Gar hamexohā, ki gardad sad mashaqqat az tu raf’.

Dur budan beh zi g‘avg‘oi magas z-on ro‘, ki hast

Behadat ranq az huqumash, lek ne imkoni naf’.

Agar yuzlab mashaqqat sendan uzoq bo‘lishini istasang, dunyoga haddan tashqari hirs qo‘ygan ochko‘z olomondan, johil kishilardan uzoqlash. Ulardan senga faqat tashvish, g‘am yetadi. Zero, chivin g‘avg‘osidan uzoq bo‘lgan yaxshi, chunki hech bir naf‘i bo‘lmagan holda, hujum qilib, kishiga ortiqcha malol yetkazadi. Bu o‘rinda dunyoparast avomlar ozor yetkazib turadigan chivinlarga o‘xshatilgan. Chivin hujumidan hech foyda bo‘lmaganidek, hirsli avomlardan ham faqat va faqat ozor yetadi xolos. Sen ulardan qancha uzoq yursang hayoting ham shu qadar mashaqqatsiz bo‘ladi.

Navoiy hatto avliyolar fazilati haqida gapirganda ham ulardagi qanoatni maqtaydi va hirs-u havasni tanqid qiladi. U “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirishicha, Shayx Bunon bin Muhammad Hammol tushida Rasul sallallohu alayhi vasallamni ko‘rganda, U muborak zot shayxga shunday degan ekanlar: “Kimki hirs, ochko‘zlik bilan ovqatlansa, Allohu taolo uning qalb ko‘zini yopib qo‘yadi”. Shunda shayx uyg‘onib: “hargiz to‘yguncha nima yemagaymen”, deb qaror qilibdi. Navoiy mazkur asarida ulug‘ xamsanavis shoir Nizomiy Ganjaviyni hirsu havoga berilmasdan, qanoat qilib, podsholarga yalinmagani va ularni ziyoratiga bormaganini alohida ta’riflab shunday yozadi: “...umri garonmoya (bebaho umr)ni avvaldin oxirg‘acha qanoatu taqvo va uzlatu inzivo bila o‘tkaribdurlar va hargiz soyir shuarodek hirsu havo g‘alabasidin dunyo arbobig‘a iltijo qilmaydurlar. Balki ro‘zgor salotini alar mulozamatig‘a tabarruk tilarlar erkondur”. Zotan Nizomiy Ganjaviyning o‘zi ham satrlarida shunday degan:

M a s n a v i y:

Chun ba ahdi javoni az bari tu,

Ba dari kas naraftam az dari tu.

Hamaro ba daram firistodi,

Man namexostam, tu medodi.

Chunki bar dargahi tu gashtam pir,

Z – onchi, tarsidanist, dastam gir.

“Yoshligimdan sening eshigingdan boshqa bir eshikka bormadim. Hammani eshigingga yubording, men istamasdim, sen berarding. Endikim, sening dargohingda qaridim, qo‘rqiladigan narsalardan o‘zing panoh ber!”

Navoiy “Navodir ush-shabob” devonidagi bir qit‘asida esa inson Yaratgan zotning taqdiriga rozi bo‘lishi, harakat qilgan bilan qadardagi rizqning ko‘paymasligi yoki ozaymasligi, azaldan belgilangan nasibaga rozi bo‘lmagan kishining g‘amga botishi haqida yozadi:

Haq taolo bandasining qismatin
Chun azal devonida qilmish raqam.

Chun aning tag‘yirining imkoni yo‘q,
Negakim, qilmish o‘zi jaffal-qalam.

Ya‘ni Yaratuvchi bandaning qismatini azal devonida bitib qo‘ygan. Uni o‘zgartirishning aslo imkoni yo‘q. Chunki taqdir degan bitikni Yaratuvchining O‘zi yozib qo‘ygan.

Kimki, andin ortuq-o‘ksuk istagay,
Bordur oning jahli ortuq, aqli kam.

Tengri ehsonig‘a shod o‘lg‘an, qilur
O‘zni shod-u mehnatidin elni ham.

Kimki, taqdirga yozilgan nasibadan ortiq yoki kam bo‘lishini istasa, unday kishi johil va aqli kam hisoblanadi. Aksincha, Taqdiridap rozi bo‘lgan, Tangrining ehsoniga, bergan ne‘matlariga shod bo‘lgan, shukr qilgan kishi, o‘zini ham, elni ham shodu xursand qiladi.

Shokir o‘lmay ulki, ozu hirsdin,
Doim etgay o‘zni g‘amgin, kimga g‘am?!

Lekin Tangri ehsoniga hirs-u havas tufayli shukr qilmagan, rozi bo‘lmagan kishi, nasibasini oz bilsa, boshqani emas o‘zini g‘amga soladi. Bilamizki, Navoiy taqdir masalasiga jiddiy yondashadi. Uni iymonning shartlaridan biri sifatida “Siroj ul-muslimin” asarida keltirib o‘tadi.

Bu qit‘adan ham hirs va ortiqcha havas insonni g‘amga solishi anglashiladi.

Shu o‘rinda “Vaqfiya”dan mavzumizga oid bir ruboiyni keltirib o‘tmoqchimiz: Ulug‘ shoir shunday deydi: “Bu jihatdin xirad hokimi odil hukmi bila rostlik siyosatgohida g‘araz o‘g‘risini fano dorig‘a osib, insof dor ul-qasosida hirs qaroqchisi bo‘ynin qanoat qilichi bila urub, vujud shahrida muddao qasrini riyozat yomg‘uri bila yiqib, nafsoniyat bog‘ida orzu niholin intiqo‘ iligi bila qo‘ngarib, amal mazraida tavaqqu‘ xirmanin faqr o‘ti bila kuydurub, ul xirman kullarini fano yeliga sovurdim.

To hirs-u havas xirman barbod o‘lmas:

To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas.

To zulmu sitam jonig‘a bedod o‘lmas,

El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

Demak ulug' mutafakkirning yozishicha, to hirs-u havas xirmani barbod bo'lmaguncha, nafsu havo qasri qulamaguncha, zulm-u sitam joniga putur yetmaguncha, el shod va mamlakat obod bo'lmaydi. Nega el yurt obod bo'lmaydi? Chunki hirs-u havas, nafsu havo, zulmu sitamlar insonlarning ichki xotirjamligini yo'qotadi, ruhiy va ma'naviy zaiflashtiradi, adolat va barqarorlikka putur yetkazadi. Natijada shaxslarda axloqan va ruhan buzilish paydo bo'lib, odamlar yashab turgan jamiyat yemirila boshlaydi. Natijada insonlar yashab turgan muhit xarob va halokatli bir holga keladi.

Lekin bir narsani istisno tarzida aytib o'tish kerak. Hirs so'zi asosan salbiy ma'nolarda qo'llansa ham ba'zan oshiqona va orifona g'azallarda bu so'z oshiqning qalb nidolari, ichki dardlari va ma'shuqqa yetish yo'lidagi holatlarini ifoda qilib, o'ziga xos ma'nolarda qo'llanib keladi. Bunga Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" devonidagi sakkiz baytli "hirs" radifli g'azalini misol qilib keltirish mumkin: G'azalning quyidagi baytlari fikrimizga yorqin misol bo'ladi.

Solikka hech mazhab aro hirs xo'b emas,
Illo bu eski dayrda jomi fanog'a hirs.

Mahrumluq harisqa oyin erur, valek
Vasli ishida kirmayin o'tmas arog'a hirs.

Ya'ni solik uchun biror mazhabda haris, ochko'z bo'lish yaxshi emas. Lekin bu ko'hna dunyoda fano jomini ichish uchun haris bo'lish lozim. Keyingi baytda ham shunga o'xshash fikr beriladi. Ochko'z, haris odamga mahrumlik xos odatdir. Chunonchi, u ochko'zligi tufayli ko'p narsadan mahrum bo'lib qoladi. Lekin yorning vasliga yetish uchun oraga harislik – o'ta ishtiyoqmandlik kirmaguncha ish bitmaydi.

Xulosa. Ma'lum bo'ladiki, hirs-u havas, faqat kishining o'ziga emas, jamiyatga ham zarar yetkazadi. Aksincha, qanoatli, shukr qiluvchi, insof va diyonatli inson xotirjam va baxtli yashaydi. Bugungi kunda ham biz Navoiy hazratlarining o'gitlariga amal qilib, yoshlarimizga hirs va ochko'zlik kabi tushunchalarga izoh berib, ularni qanoatli va diyonatli insonlar bo'lishiga hissa qo'shmog'imiz kerak. Yuqoridagi o'gitlardan ma'lum bo'ladiki, ulug' mutafakkirning g'oyalari va axloqiy qarashlari har bir davr uchun dolzarb va ahamiyatli bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Akademyashr, 2023.
2. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 1-ж. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
3. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 2-ж. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
4. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 5-ж. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
5. 1001 мавзуда 1001 ҳадис. – Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа компанияси, 2006.
6. Сайфиддин Рафиддинов. Навоий қазо ва қадар ҳақида. Интернет. Фейсбук материали. Робия Камол пости. Тафаккур ва ижод сайти. 9 декабр, 2025 й.